



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA  
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**MUHAMMAD AL – XORAZMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI  
FARG‘ONA FILIALI**

**Filial talabalari o‘rtasida o‘tkaziladigan “Ma’rifat maydoni” tanlovini o‘tkazish  
to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 9-martdagi 48-sonli buyurug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. Direktor o‘rinbosarlari, fakultet dekanlari, bo‘lim boshliqlari, kafedra mudirlari va filial akademik litseyi direktoriga:

- talaba-yoshlar o‘rtasida atoqli adiblar va mutafakkirlarimiz ijodiy me’rosini keng targ‘ib qilish, ularning adabiyotga qiziqishlarini yanada oshirish, hamda o‘z iqtidorlarini namoyish etish uchun imkoniyat yaratish maqsadida 2022/2023-o‘quv yilidan boshlab har yili doimiy ravishda “Ma’rifat maydoni” tanlovi (keyingi o‘rinlarda “Tanlov”) o‘tkazilsin.

2. Tanlovni o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom 1-ilovaga, filial tashkiliy ishchi guruhi tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari v.b. (A.Kadirov) ga:

- mazkur tanlovni belgilangan muddatlarda o‘tkazish va u bilan bog‘liq bo‘lgan barcha tashkiliy ishlarni amalga oshirish;

- tanlov ishtirokchilarini xavfsizligini ta’minlagan holda tanlovda g‘olib bo‘lganlarni tanlovning hududiy, mintaqaviy va respublika final bosqichlaridagi ishtirokini ta’minlash;

- tanlov va xizmat safari bilan bog‘liq barcha xarajatlarni filialning budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan qoplanishini nazoratga olish vazifalari yuklatilsin.

3. Filial bosqichini yuqori saviyada tashkil etish va o‘tkazish hamda g‘oliblarni taqdirlash bilan bog‘liq bo‘lgan moliyaviy xarajatlari filialning budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan qoplasin.

4. Mazkur buyruqni o‘rnatilgan tartibda joylarga yetkazilishini ta’minlash Devonxona mudiri (M.Xamdamova) zimmasiga yuklatilsin.

5. Mazkur buyruq ijrosi nazoratini yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktorning birinchi o'rinbosari (A.Kadirov) zimmasiga yuklatilsin.

**Direktor**

**F. Muxtarov**

**Farg'ona shahar**  
**2023 yil "05"04**  
**59-sonli**